

XULQ BU NIMA?

Jurabayeva Barno Rasulbek qizi
Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti,
Defektologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu ishda xulq va uning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Xulq — inson tomonidan amalga oshiriladigan tashqi harakat va munosabatlar majmui bo'lib, u oddiy yoki kompleks ko'rinishda namoyon bo'ladi. Kompleks xulq bir necha oddiy reaksiyalardan tashkil topadi va uni qismlarga ajratib tahlil qilish bolada ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, xulqning shakllanishida atrof-muhit va stimullar hal qiluvchi omil sifatida ko'rib chiqiladi. Stimul va natija o'zaro ta'sirda xulqni kuchaytirishi, zaiflashtirishi yoki so'ndirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Ushbu ish xulq-atvorni kuzatish, baholash va korreksiyalash jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan nazariy va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Xulq, xulq-atvor, xulq buzilishi, xulq atvor tahlilchisi, kompleks xulq, oddiy reaksiya, stimul, natija, atrof-muhit, xulqni shakllanishi, kuzatish, korreksiya, ko'nikma, pedagogika, psixologiya.

Introduction

Kirish

Xulq atvor buzilishlari tahlilchisi xulq atvorni korreksiyalovchi mutahassis. Xulq -bu inson tomonidan amalga oshiriladigan harakat. Masalan: yeyish, uxlash, yuvinish va h. Insonda kuzatiladigan subektiv holatlar ya'ni bosh og'rigi, qon bosimining ko'tarilishi xulqqa kirmaydi. Masalan, bola mashg'ulot jarayonida quloq solmasdan stuldan turishni va baqirishni boshlaydi. Bu holatni qayd etish uchun jadvalga bunday xulqni necha marotaba nomoyon bo'lganligini qayd etish lozim. Har qanday xulq oddiy yoki kompleks bo'lishi mumkin. Kompleks xulq o'z ichiga bir qancha harakat va reaksiyalarni oladi. Reaksiya-bu eng oddiy harakat. Xulq atvor buzilishlari tahlilchisi kompleks xulqni bir necha reaksiyalarga taqsimlashi lozim. Masalan, agressiya tufdash va urishni oddiy reaksiyaga bo'lgan holatda necha marta tufdagan va urganini o'lchash mumkin. Bundan tashqari yaxshi xulq qo'lni yuvish, onasiga murojat kabi xulqni o'lchashda xulqni bir necha reaksiyaga bo'lish kerak. Qo'lni yuvish xulqini quydagicha reaksiyalarga bo'lish mumkin:

- suvni yoqish
- sovuqni olish
- qo'lni sovunlash
- qo'lni chayish
- suvni o'chirish

Kompleks xulqni qismlarga bo'lib tahlil qilish yordamida bolada ko'nikmani o'zlashtirish darajasini baholay oladi.

Xulq qanday shakllanadi

Xulq atrof muhit ta'sirida o'zgaruvchan xarakterga ega. Atrof-bu xulq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat yoki holatdir. Stimul-bu vaziyat, harakat, predmet yoki ularni kombinasiyasidir. Stimul deb atrofda barcha o'zgarishlarni sezgi retseptorlarimiz yordamida qabul qilinishidir. Bu quyosh, tam, xid, ob-havo, maqtov, yomon xulqqa nisbatan ota-onaning reaksiyasi bo'lishi ham mumkin. Ayrim stimullar yomon xulqni yuzaga kelishiga va bir muncha vaqt saqlanib qolishiga olib kelishi mumkin. Boshqalari esa yomon xulqni so'ndirishi yoki uni yuzaga kelishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Masalan, xonada krovat bo'lsa bu bolada uxlashga yotish extimolini oshiradi, agarda krovat bo'lmasa Bolani uxlashga yotishini tashkillashtira olmaslii yoki bolani kech uxlashiga olib kelishi mumkin.

Atrofdagi stimullarning o'zgarishi ikki toifaga bo'linadi:

-xulq yuzaga kelishidan oldingi stimul;

-xulq namoyon bo'lgandan so'ng yuzaga keluvchi stimul.

xulq yuzaga kelishidan oldingi stimul xulq natija

stul Bola stulga o'tirdi Ona maqtadi: "barakalla"

Bola arg'imchoq yonida Bola arg'imchoq uchdi Ona quchoqladi va aylantirdi

Onasi so'radi 1+1 2 "Barakalla"

Onasi so'radi 1+1 Bola yig'lab yubordi "Bor damingni ol"

Qoidaga ko'ra xulq yuzaga kelishidan oldingi stimul natijasida hosil bo'ladi. Stimul-natija xulqni kuchaytiradi, kuchsizlantiradi yoki so'ndiradi.

XULQNI YUZAGA KELTIRUVCHI FAKTORLAR

Atrofda turli xulqni hosil qiluvchi stimullar juda ko'p.

Xulosa

Xulq — inson tomonidan amalga oshiriladigan tashqi harakat va munosabatlar bo'lib, u oddiy yoki kompleks shaklda namoyon bo'ladi. Kompleks xulq bir nechta oddiy reaksiyalardan tarkib topadi va uni qismlarga ajratib tahlil qilish orqali bolaning ko'nikma darajasi baholanadi. Xulq atrof-muhit ta'sirida shakllanadi, bunda stimul asosiy rol o'ynaydi. Stimul xulq yuzaga kelishidan oldin yoki undan keyin sodir bo'lishi mumkin va natijaga qarab xulqni kuchaytirishi, zaiflashtirishi yoki butunlay so'ndirishga olib keladi. Demak, xulqni o'rganishda va uni korreksiyalashda stimul va natijalarni to'g'ri aniqlash katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
3. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Skinner B.F. Behavior Analysis and Behavior Modification. – New York: Prentice Hall, 2002.
5. Cooper J.O., Heron T.E., Heward W.L. Applied Behavior Analysis. – 2nd ed. – New Jersey: Pearson, 2007.

-
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Maxsus pedagogika va psixologiya fanidan o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020.
 7. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1986.
 8. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivojlanish nazariyalari. – Moskva: Pedagogika, 2001.